

PAVEL PETROVICH BENKOVNING HAYOTI VA IJODIY YO'LI

Sultonova Kamola Komiljon qizi

“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi rassom ta‘mirchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr O‘zbekiston tasviriy san‘atining yirik namoyandasi, taniqli rassom va pedagog Pavel Petrovich Benkovning hayoti, ijodiy yo‘li hamda u asos solgan professional rangtasvir maktabining ahamiyati yoritilgan. Muallif Benkovning Samarqand davridagi sermahsul faoliyati, uning ustaxonasidan yetishib chiqqan mashhur shogirdlari va o‘zbek milliy realizmiga qo‘shgan hissasini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada ilk bor O‘zbekiston Davlat san‘at muzeyi, Samarqand va Nukus muzeylarining rasmiy fond hujjatlari hamda inventar reyestrlari (KP raqamlari) asosida rassom asarlarining muzey kolleksiyalaridagi o‘rni va ularning etnografik, tarixiy hamda badiiy qiymati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Pavel Benkov, O‘zbekiston tasviriy san‘ati, plener rangtasviri, realizm, Samarqand maktabi, muzey fondi, fond hujjati, reyestr raqami, milliy kolorit, madaniy meros

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь, творческий путь и значение профессиональной школы живописи, основанной Павлом Петровичем Беньковым — одним из выдающихся представителей изобразительного искусства Узбекистана XX века. Анализируется плодотворная художественная деятельность мастера в самаркандский период, творческое наследие его известных учеников, а также его значительный вклад в становление и развитие узбекского национального реализма. На основе официальных документов музейных фондов и инвентарных книг (номера КП) Государственного музея искусств Узбекистана, а также музеев Самарканда и Нукуса, в статье научно обосновывается место произведений П. П. Бенькова в музейных коллекциях, раскрывается их историческая, этнографическая и художественная ценность как неотъемлемой части культурного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: Павел Петрович Беньков, изобразительное искусство Узбекистана, пленэрная живопись, реализм, самаркандская школа живописи, музейная коллекция, архивный документ, инвентарный номер (КП), национальный колорит, культурное наследие.

Abstract: This article highlights the life, creative path, and significance of the professional school of painting founded by Pavel Petrovich Benkov, a prominent figure in 20th-century Uzbek fine arts. The author analyzes Benkov’s prolific activity during his Samarkand period, the heritage of his famous disciples, and his contribution to Uzbek national realism. Furthermore, based on official collection documents and inventory registers (KP numbers) of the State Museum of Arts of Uzbekistan, Samarkand, and Nukus museums, the article

scientifically substantiates the place of the artist's masterpieces within museum collections, along with their ethnographic, historical, and artistic value.

Keywords: *Pavel Benkov, Fine Arts of Uzbekistan, plein-air painting, realism, Samarkand school, museum collection, archival document, register number, national color, cultural heritage*

KIRISH

Atoqli rassom Pavel Petrovich Benkov 1879-yil 20-dekabrda Qozon shahrida tug'ilgan. Bolalikdan go'zallikka boshqacha nigoh bilan qarash, tasviriy san'atga bo'lgan yuksak iqtidori orqali tengdoshlaridan ajralib turgan. Bo'lajak rassom professional ta'limni 3 ta nufuzli nufuzli dargohlarda oladi:

1.Qozon badiiy bilim yurti (1896–1902): Dastlabki dastgohli rangtasvir sirlarini o'rganadi. Rassomlikning ilk poydevorini ushbu dargohda mustahkam quradi.

2.Peterburg Badiiyot akademiyasi (1901–1906): Mashhur rus pedagogi D.N. Kardovskiy ustaxonasida tahsil olib, akademik realizm uslubini mukammal egallaydi. Realizm tasviriy san'atning boshqa usullarining onasi hisoblanib, realizmdan o'tgan* o'quvchigina boshqa yo'nalishlarda salmoqli faoliyat yurita oladi.

3.Parij, Jyulian akademiyasi (1906): Fransiyadagi o'qishi davomida u yerdagi impressionistik yo'nalishlar va yorug'lik-havo (plener) muhitini tasvirlash usullarini o'zlashtiradi.

Ushbu bilim yurtlarida olgan nazariy va amaliy ko'nikmalarini butun faoliyati davomida qo'llaydi. Mana shu bilimlar rassomdan keyin o'chmas iz qolishiga sababchi bo'ladi.

1929-yilda Benkov faoliyatida tub burilish yasagan voqea sodir bo'ladi. U ilk bor O'rta Osiyoga ijodiy safar uyushtiradi va Buxoro hamda Xiva shaharlaridagi sharqona muhitdan hayratga tushadi. O'zi tug'ilib o'sgan shahridagi tabiat manzaralari bilan O'rta Osiyoning yer bilan osmoncha farqi bo'lib, quyoshli o'lkaning tabiati uni to'xtovsiz ijod qilishga undaydi.1930-yildan boshlab u butunlay Samarqand shahriga ko'chib o'tadi. Aynan shu yerda uning ijodiy kamoloti cho'qqisiga erishgan "quyoshli va yorqin" asarlari dunyoga keladi. Rassom 1949-yil 16-yanvarda Samarqandda vafot etadi.

Benkov nafaqat ijodkor, balki O'zbekistonda professional san'at kadrlarini tayyorlash tizimini yaratgan yirik pedagogdir. 1930-yildan boshlab u yangi tashkil etilgan Samarqand badiiy bilim yurtida yetakchi o'qituvchi bo'lib ishladi.

U Yevropa realistik va impressionistik tasvirlash metodikasini mahalliy an'analar bilan uyg'unlashtirgan o'ziga xos maktab yaratdi. Uning to'g'ridan-to'g'ri rahbarligida o'zbek rang tasvirining turli sohalarida quyidagi yirik namoyandalari yetishib chiqishiga zamin yaratadi:

Lutfulla Abdullayev — maishiy janr va milliy portret ustasi.

Chingiz Ahmarov — monumental san'at arbobi va miniatyura an'analari tiklovchisi.

Zinaida Kovalevskaya — O'zbekiston xalq rassomi, maishiy kompozitsiyalar muallifi.

Abdulhaq Abdullayev — o'zbek portret san'atining eng yirik namoyandalaridan biri.

Ushbu rassomlar hozirgacha O'zbekiston rassomlarining yetuk namoyandalari va ustozlari bo'lib, millionlab rassomlarning shakllanishiga turtki bo'lishdi.

Pavel Benkov qoldirgan meros bugungi kunda respublika muzeylarining asosiy fond reyestrlarida saqlanadi. Asarlar yorqinligi, issiq va sovuq rang kaloritlaridan mahoratli foydalanilganligi bilan ajralib turadi. Rassom asarlari muzey eksponatlarining davlat hisobi (KP — Kniga Postupleniy) va ilmiy-yordamchi fond (NVF) hujjatlarida alohida qayd etilgan.

Fond hujjati (Reyestr № KP-4821 / J-1036): "Xovuz bo'yidagi suvchilar (Mashkopchilar)" (1929). Polotno, moybo'yoq. Ushbu asar muzey fondiga 1930-yillarning o'rtalarida qabul qilingan bo'lib, plener rangtasvirining durdonasi hisoblanadi.

Fond hujjati (Reyestr № KP-5114 / J-1240): "Dugonalar" ("Podrugi", 1940). Polotno, moybo'yoq. Milliy libosdagi o'zbek ayollari lirik qiyofasini aks ettiruvchi ushbu eksponat muzeyning doimiy ekspozitsiyalar zalidan joy olgan.

Fond hujjati (Reyestr № KP-3912): "Uzum bozori" (1928–1929). Buxoro va Samarqand bozorlarining hayoti aks etgan koloritga boy kartina.

Rassom ijodining o'chog'i hisoblanmish Samarqandda eksponatlar bir qancha ko'p.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondida ("Tasviriy san'at" bo'limi, Fond №6) Benkovning 140 dan ortiq etyud, eskiz va tugallangan rangtasvir polotnolari saqlanadi.

Fond hujjati (Reyestr № KP-1204 / S-45): "Registondagi choyxona" (1944). Ushbu asar urush yillarida va undan keyingi davrda Samarqand hayotini aks ettiruvchi birlamchi manba hisoblanadi.

Fond hujjati (Reyestr № KP-894): "Eski shahar ko'chasi. Samarqand" (1930-yillar). Quyosh va soya o'yinini impressionistik tarzda ko'rsatuvchi hujjatli-badiiy eksponat.

Bundan tashqari Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi (Nukus)da ham rassom ijodidan bahramand bo'lish mumkin.

Muzeyning rus va o'zbek avangardi hamda realizmi fondida (Fond №2) Benkov qalamiga mansub 40 ga yaqin nodir etyudlar mavjud. Ular orasida "Xiva. Minorai kalon eskizi" (1931, Reyestr № KP-2345) asari alohida ilmiy qimmatga ega.

Umuman olganda rassom asarlari har bir muzey ruhiyatiga o'zgacha joziba berish bilan bir qatorda asarlarning kaloriti hali ham so'nmaganligi rassom mahoratini hali hanuz anglatib turadi.

XULOSA

O'z ona yurtidan so'ng boshqa bir o'lkani sevib, qiziqish va ishtiyoq bilan uning aholisi, joylashuvi, tarixi, an'analariga mehr qo'yish, ularni tarix sahifalarida qoldirish Benkovning naqadar buyuk qalb egasi, kasbining fidoyisi ekanligini anglatadi. Uning muzey fondlarida saqlanayotgan asarlari nafaqat davlat madaniy merosining oltin fondini tashkil etadi, balki bugungi yosh rassomlar uchun hamon eng asosiy o'quv-uslubiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Fond hujjatlarida qayd etilgan har bir polotno O'zbekiston tarixining ma'lum bir davrini o'zida aks ettirgan bebaho sahifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nikiforov B. M. Pavel Petrovich Benkov (1879–1949). — Moskva: Iskusstvo, 1967. — 130 s.
2. Benkov P. P. Perepiska. Vospominaniya. / Sostavitel: Z.M. Kovalevskaya. — Toshkent: Gafur Gulyam nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. — 210 s.
3. Umarov A. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi (XX asr). — Toshkent: O'qituvchi, 2001. — B. 45-58.
4. O'zbekiston Davlat san'at muzeyi ilmiy fond materiallari. Rangtasvir bo'limi reyestri (Fond №3), KP-4821 va KP-5114 inventar varaqlari. — Toshkent, 2018.
5. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi arxiv hujjatlari. P.P. Benkovning ijodiy merosi hisobot daftarlari (Fond №6). — Samarqand, 2020.
6. Toshxo'jayev M. Samarqand va Buxoro rangtasvir maktablarida plener an'analari. // San'at jurnali, 2012, №3. — B. 12-15.